

TA'LIM-TARBIYA BERISH JARAYONIDA TALABALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sheranova Maryam Bazarbayevna

Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Umumiy pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talaba yoshlarga ta'lim -tarbiya berish jarayonida ma'naviyatini shakllantirish, milliy ong tushunchasining mohiyatida ma'naviy hayot asosiy o'rin egallashi, Bugungi demokratik jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy-ruhiy muhit va uning asoslarini tashkil qiluvchi ma'naviy omillar muhim o'rin tutayotganligi haqida so'z boradi.

***Kalit so'zlar:** talaba, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, qadriyat, tafakkur, aql-idrok, madaniyat, shakllantirish, avlod, ajdod.*

Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli, ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda milliy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga

yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradilar.

Hozirgi kunda o'quvchilar ongiga mustaqillik, vatanparvarlik, sadoqat kabi tushunchalarni singdirish, kelajakda buyuk davlatning munosib farzandlarini kamol toptirish, ayni paytda ularning ongida mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik ma'naviy-ruhiy hayotimizning eng muhim talabidir. Bugungi demokratik jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy-ruhiy muhit va uning asoslarini tashkil qiluvchi ma'naviy omillar muhim o'rin tutadi. Chunki bugungi kunda xalqimizga azaldan xos bo'lgan hamjihatlik va bag'rikenglik, mehr-oqibat, mehmondo'stlik va sahovat kabi insoniy fazilatlar yanada yorqin namoyon bo'lmoqda va bunday ma'naviy muhit odamlarning ruhi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha ma'naviy sohadagi ishlarda kishilarda milliy ongni zamonaviy hamda tarixiy taraqqiyotning yutuqlari asosida sog'lomlashtirish va milliy o'zlikni anglash orqali ma'naviy-ruhiy qiyofani shakllantirish, pirovard maqsad ekanligiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu esa milliy ongni shakllantirishni tadqiq etishni taqozo etmoqdaki, buni inkor etib bo'lmaydi. Milliy ong tushunchasining mohiyatida ma'naviy hayot asosiy o'rin egallaydi. Bu esa ma'naviyat aslida qanday tushuncha ekanligini anglab olishimiz kerak deganidir. Ma'naviy-ruhiy qiyofani o'rganish, bizga, tariximizning keyingi davrida xalqimiz ruhiyati va dunyoqarashida paydo bo'lgan loqaydlik, boqimandalik, ma'suliyatsizlik, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularidan uzoqlashish kayfiyatlari, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning sustligi kabi salbiy hislatlarning vujudga kelganlik sabablarini ochishimiz, jonkuyarlik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik va boshqa shu kabi fazilatlarni rivojlantirishning yo'llarini topish imkonini beradi va bu islohotlarni yanada jonlanishi uchun zamin tayyorlaydi. Milliy ong ma'lum millat va etnik birlik vakillarining o'ziga xos ruhiy qiyofasi, dunyoqarashi, fikrlashi, tafakkur tarzi hisoblanadi. Har bir xalqqa xos bo'lgan milliy xarakter, urf-odat va an'analar va milliy o'zini-o'zi anglashi va ularning namoyon bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham milliy ong doirasida tadqiq qilinadi.

Bizga ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar.

So'nggi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga kelib, uning negizida ilmiy qarash va e'tiqod yotadi.

Ilmiy qarash (yunoncha "idea"—g'oya, tasavvur va tushunchalar yig'indisi) muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish ularda ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurni rivojlantiradi. Ilmiy tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisa va jarayonlarga ilmiy yondashuvni anglatadi.

O'quvchining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi uning shaxsiy qadriyatlarga ega ekanligi bilan baholanadi va yuzaga chiqadi. O'quvchilarning shaxsiy qadriyatlari uning mustahkam tarbiya topishida muhim o'rin egallaydi. Shaxsiy qadriyatlar deganda, o'quvchining kundalik hayotini tartibga soluvchi va yo'naltiruvchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan odatlarining muntazamligi nazarda tutiladi. Yoshlar tarbiyasi ustida ishlab ba'zan tez o'zgaruvchan, ba'zan tez moslashuvchan va ba'zan esa o'zgartirib bo'lmas mushkul holat sifatida turli xulosalarga kelishimiz mumkin.

Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni - o'qituvchi va O'quvchi faoliyatini o'z ichiga

oladi. Tarbiya jarayonida O'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, ahloqiy, irodaviy, etsetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvatlari mutsahkamlanadi. Tarbiya jarayonida O'quvchida jamiyatning shaxsiga qo'yadigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan hulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun O'quvchining ongiga hissiyotiga, irodasiga tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

O'quvchilarni ma'anviy-axloqiy tarbiyalashning muhim yo'nalishlari:

1) kognitiv ya'ni, borliqni anglash, atrof-muhitni rivojlantirishga qiziqish, savollar berib, hodislarning kelib chiqishini o'rganish, tushungan yoki tushunmagan narsa va hodisalarni erkin ifoda eta olishi kabi layoqati;

2) kreativligi, ya'ni ijodiy fikrlash, intiluvchan, fantaziyaga boylik, yangilikka intiluvchi va emotsional barqarorlikka ega;

3) tashkilotchiligi ya'ni, o'zining va jamoasining oldiga mustaqil maqsad qo'ya olishi va uni ro'yobga chiqara olish layoqatiga egalik, safarbar etuvchi, birlashtiruvchi va ta'sir etaoluvchi kabi boshqaruvchanlik xususiyatlarining mujassamlashganligi;

4) kommunikativ ya'ni, o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi, keng ta'sir doirasiga ega ekanligi.

5) xulq-atvori - mavjud sifat va fazilatlari hamda o'z o'ziga, inson va jamiyatga, tabiatga, nabodotu hayvonotga bo'lgan faol munosabatining qiymati kabilar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishning omillari va vositalari ko'p. O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri – ota-onani yuksak darajada e'zozlash, hurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandlarning suyanchig'i, bitmas-tuganmas boyligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. *Yo'ldoshev J.G, Usmonov, S.A, Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.-T. Fan va texnologiya. 2008.*
2. *Qayumova N.A O'qitishning axborot-ta'lim tizimi sharoiti va unda axborot kamunikatsiya texnologiyalari soxasi o'qituvchilarini tayorlash. Monografiya-T: "Fan va texnologiya", 2015*
3. *G'oziyev. E Jabborova. A "Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi" T. 2003y*
4. *Sheranova M. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirishda mediata'lim texnologiyasidan foydalanish tizimi. Monografiya-T: "Innavatsiya ziyo", 2020y.*